

**MALAYZIYADA ADABIY TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI****Buxarova Farida Mirxalikovna**

Turizm kafedrası dotsenti, i.f.n.

Oripjonova Masturaxon Quدراتilla qizi

TDSHU magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Malayziyada adabiy turizmning rivojlanish salohiyati va istiqbollari tahlil qilinadi. Mavzuga oid ilmiy yondashuvlar, Malayziyada mavjud adabiy meros va ularni turizm bilan integratsiyalash tajribalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari adabiy turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: adabiy turizm, Malayziya, adabiy meros, madaniy turizm, turizm rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье анализируется потенциал и перспективы развития литературного туризма в Малайзии. Рассматриваются научные подходы к теме, существующее литературное наследие Малайзии и его интеграция с туризмом. Результаты исследования направлены на выработку предложений по развитию литературного туризма.

Ключевые слова: литературный туризм, Малайзия, литературное наследие, культурный туризм, развитие туризма.

Annotation: this article analyzes the potential and prospects for the development of literary tourism in Malaysia. It examines scientific approaches to the topic, the existing literary heritage in Malaysia, and experiences in integrating it with tourism. The research results aim to propose recommendations for the advancement of literary tourism.

Keywords: literary tourism, Malaysia, literary heritage, cultural tourism, tourism development.

Kirish: Turizm sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki madaniy merosning saqlanishi va targ'ib qilinishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, madaniy turizmning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan adabiy turizm so'nggi yillarda dunyo miqyosida katta e'tiborni tortmoqda. Adabiy turizm – bu yozuvchi yoki shoirlarning hayoti, ijodi, asarlari bilan bog'liq joylarga sayohat qilish, adabiy yodgorliklarni ziyorat qilish va adabiy muhitni his qilish imkonini beruvchi turizm turi hisoblanadi.

Malayziyada adabiy turizm hali keng rivojlanmagan bo'lsa-da, mamlakatning boy adabiy merosi va tarixiy manbalari ushbu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Malayziya turli madaniyatlarga boy mamlakat bo'lib, unda malay, xitoy va hind adabiyoti an'alarining uyg'unlashuvi kuzatiladi. Bu jihat turistik diqqatga sazovor adabiy joylarni yanada jozibador qiladi. Usman Avang, Abdulla bin Abdulqodir Munshi, A. Samad Said kabi yozuvchilar Malayziya adabiyotida muhim o'rin tutadi va ularning asarlari milliy madaniyatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Dunyo tajribasiga nazar tashlasak, Buyuk Britaniyada Shekspirning tug'ilgan joyi – Stratford-upon-Avon shahri, Rossiyada Pushkin muzeyi, AQShda Mark Tven bilan bog'liq joylar adabiy turizm markazlariga aylangan. Malayziyada esa bunday an'alar hali shakllanish bosqichida. Shuning uchun ham mamlakatda adabiy turizmni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash va ularning iqtisodiy hamda madaniy ahamiyatini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: Ushbu maqolada Malayziyada adabiy turizmning hozirgi holati, muammolari va rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Malayziyaning adabiy merosi asosida turizm sanoatini diversifikatsiya qilish, madaniy boyliklarni targ'ib etish va mamlakatning xalqaro turistik brend sifatidagi mavqeini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

NATIJALAR: Malayziyada adabiy turizm hali keng rivojlanmagan bo'lsa-da, bu sohada rivojlanish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Malayziyaning mashhur adiblaridan biri Usman

Avang bo'lib, uning asarlari milliy madaniyat va tarixni aks ettiradi. Bundan tashqari, Abdulla bin Abdulqodir Munshi kabi yozuvchilarning merosi adabiy turizmni rivojlantirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda Malayziyaning kitobga bo'lgan muhabbati juda kuchli. Kuala Lumpur kabi shaharlardagi qator kitob do'konlari va kutubxonalar adabiyot qanday rivojlanganligini ko'rsatadi. Malayziya markaziy bozori 1888-yilda qurilgan bo'lib, hozirda an'anaviy hunarmandchilik va kitoblar sotiladigan kutubxonalar bilan to'la. Umda Malayziyaning qadimgi va zamonaviy uyg'unligi aks etgan.²¹³

Hozirgi kunda Malayziyada adabiy turizm quyidagi shakllarda mavjud:

Adabiy muzeylar va yodgorliklar (masalan, milliy adabiyot muzeylari)

Adabiy festivallar :

Jorj Taun adabiy festivali. The Jorj Taun adabiy festivali Malayziyadagi muhim voqeadir. U har yili o'tkaziladi O'rta er dengizi hududi va butun dunyo kitob ixlosmandlarini o'ziga jalb qiladi. Siz keng doiradagi mavzularni qamrab oluvchi munozaralar, kitob taqdimotlari va seminarlardan bahramand bo'lishingiz mumkin.

Kuala-Lumpur xalqaro kitob yarmarkasi. The Kuala-Lumpur xalqaro kitob yarmarkasikitobsevarlarning orzusi ushaladi. U Malayziyaning ko'plab tillardagi kitoblar bilan jonli nashriyot sahnasini namoyish etadi.

She'riyat zarbalari va ochiq mikrofon kechalari. She'rlar va ochiq mikrofon kechalari Malayziya adabiy sahnasini yaqindan ko'rish imkonini beradi. Ushbu tadbirlar yangi ovozlarga o'z ishlarini baham ko'rish va odamlar bilan bog'lanish imkonini beradi.²¹⁴

Tarixiy adabiy joylarga sayohatlar ²¹⁵

Joylashgan shahar nomi	Asosiy adabiy belgisi	O'ziga xosligi
Melaka	Badiiy muzey	Malay yozma adabiyotining paydo bo'lishi aks ettirilgan
Kuala Lumpur	Milliy kutubxona	Noyob Malayziya adabiyoti namunalari mavjud
Penang	Jorj shaharchasi	Adabiy mavzudagi devoriy suratlar

Tahlil va muhokama: Adabiy turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar:

- Marketing va targ'ibot yetishmovchiligi – Adabiy joylar va festivallar xalqaro sayyohlarga yetarlicha tanitilmagan.
- Infratuzilmaning cheklanganligi – Ayrim adabiy meros obyektlari turistik nuqtai nazardan rivojlanmagan.
- Turistik yo'nalishlarning yo'qligi – Sayyohlar uchun maxsus adabiy marshrutlar ishlab chiqilmagan.

Malayziyada adabiy turizmni rivojlantirish uchun bir nechta strategik yo'nalishlar mavjud. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli adabiy turizm dasturlari maqsadli rejalashtirish, davlat-xususiy sektor hamkorligi va innovatsion yondashuvlar orqali rivojlanadi.

1. Raqamli platformalarni rivojlantirish . Adabiy merosni ommalashtirish va turistlar uchun qulay ma'lumot taqdim etish maqsadida raqamli platformalar yaratish muhim ahamiyat

²¹³ <https://www.gemcarrental.com.my/uz/blog/adabiy-diqqatga-sazovor-joylar-Malayziya-marshruti/>

²¹⁴ <https://www.lonelyplanet.com/articles/malaysia-food-culture>

²¹⁵ <https://www.gemcarrental.com.my/blog/literary-landmarks-malaysia-itinerary/>

kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida adabiy obidalar, yozuvchilarning hayoti va asarlariga oid virtual ekskursiyalar, interaktiv xaritalar va audiogidlar ishlab chiqilishi mumkin. Misol uchun Buyuk Britaniyada Shekspirning Stratford-upon-Avon shahridagi merosini targ'ib qilish uchun maxsus veb-saytlar va mobil ilovalar ishlab chiqilgan. Masalan, Shakespeare Birthplace Trust tashkiloti onlayn ekskursiyalar, tarixiy ma'lumotlar va virtual muzey xizmatlarini taklif etadi. Bu esa adabiy turizmni jismonan tashrif buyura olmaydiganlar uchun ham ochiq qilish imkonini beradi. Malayziyada ham Usman Avang yoki Abdulla bin Abdulqodir Munshi kabi yozuvchilar merosini raqamli shaklda targ'ib qilish mumkin.

2. Adabiy marshrutlar ishlab chiqish. Adabiy turizmni rivojlantirish uchun mashhur yozuvchilar hayoti va asarlari bilan bog'liq joylarni o'z ichiga olgan maxsus turistik yo'nalishlar ishlab chiqish zarur. Bunday marshrutlar turistlarga adabiy muhitni his qilish va mahalliy madaniyat bilan tanishish imkonini beradi. Fransiyada mashhur yozuvchi Viktor Gyugoning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Viktor Gyugo marshruti" mavjud bo'lib, u Parijdagi uy-muzeyidan boshlab, uning Normandiyadagi yashagan joylariga qadar bo'lgan yo'nalishni o'z ichiga oladi. Ushbu turistik yo'nalish sayyohlarga Gyugoning hayoti va ijodini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Malayziyada ham adabiy shaxslar bilan bog'liq joylarni o'z ichiga olgan maxsus marshrutlar ishlab chiqish orqali adabiy turizmni rivojlantirish mumkin.

3. Davlat va xususiy sektor hamkorligi. Adabiy turizmni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish muhimdir. Hukumat tomonidan beriladigan grantlar, soliq imtiyozlari va turistik kompaniyalar tomonidan moliyalashtiriladigan adabiy sayohatlar bu sohani rivojlantirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Masalan Janubiy Koreyada "Hallyu" (Koreys to'liqini) turizmi davlat va xususiy sektor hamkorligida rivojlantirilgan bo'lib, u mashhur yozuvchilar, shoirlar va kino asarlari bilan bog'liq joylarni sayyohlarga targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. Hukumat turizm agentliklari bilan hamkorlikda "K-Book Tourism" loyihasini yo'lga qo'yib, adabiy obidalarini targ'ib qilmoqda. Malayziya ham xususiy sektorni jalb qilgan holda, milliy adabiy yodgorliklarni targ'ib qilish uchun shunga o'xshash dasturlarni amalga oshirishi mumkin.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Malayziyaning adabiy turizmini xalqaro darajaga olib chiqish orqali xorijiy turistlarni jalb qilish mumkin. Buning uchun xalqaro adabiy festivallar, hamkorlik dasturlari va xorijiy tillarga tarjima qilingan adabiy asarlarni targ'ib qilish zarur. Aponniyani bunga misol qilib keltirsak bo'ladi. Yaponiyada har yili o'tkaziladigan "Murakami Literary Walk" festivali xalqaro miqyosda katta e'tiborni tortadi. Haruki Murakamining asarlariga bag'ishlangan ushbu tadbir Yaponiyaga minglab chet ellik sayyohlarni jalb qiladi. Malayziya ham milliy adabiyotini targ'ib qilish maqsadida xalqaro miqyosda adabiy festivallar tashkil etishi va nashriyotlar bilan hamkorlikda mahalliy yozuvchilarning asarlarini tarjima qilib, chet elda targ'ib qilishi mumkin.

Xulosa: Malayziyada adabiy turizmni rivojlantirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buyuk Britaniyaning raqamli platformalar, Fransiyaning adabiy marshrutlar, Janubiy Koreyaning davlat-xususiy sektor hamkorligi va Yaponiyaning xalqaro festivallar borasidagi tajribasi Malayziyada ham muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Bunday tashabbuslar orqali Malayziya nafaqat o'zining boy adabiy merosini saqlab qoladi, balki turizmni diversifikatsiya qilish va mamlakatni global turizm xaritasida yanada jozibador qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith, M. K. (2007). Literary Tourism: Theoretical Approaches and Case Studies. *Journal of Heritage Tourism*.
2. Henderson, J. C. (2003). Literary tourism and national identity in Malaysia. *Tourism Management*, 24(1), 123-130.
3. Malaysian Tourism Board (2023). *Tourism Industry Report 2023*. Kuala Lumpur: Ministry of Tourism.
4. Munshi, A. A. (1997). *Hikayat Abdullah and its Influence on Malaysian Literature*. Kuala Lumpur: National Library of Malaysia.